Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxnunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati.....	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar.....	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нёзматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	



UDK 338.45

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING OBYEKTIV ZARURATI

Norov Murodjon Mahmudovich

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: murod129@gmail.com

ORCID: 0009-0009-8747-7912

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va integratsiyalash usullari ko'rib chiqilgan. Metod sifatida kontent-tahlil va taqqoslama yondashuv qo'llanildi. Tahlillar raqamli texnologiyalar yordamida qiymat zanjirlarini optimallashtirish, robototexnika va innovatsion yechimlar samaradorligini ko'rsatdi. Muhokamalar raqamli xizmatlar orqali sanoat ishlab chiqarishining sifatini barqaror oshirish istiqbollari yoritadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, AKT, raqamli xizmatlar, sanoat ishlab chiqarish, elektron tijorat, biznes jarayonlari, BDI, robototexnika.

Abstract: This article explores the role of digital services in improving the quality of industrial production within the framework of the digital economy. The study examines methods of digitalization and integration of production processes through the application of information and communication technologies (ICT). Content analysis and comparative approaches were used as methodological tools. The results demonstrate the effectiveness of digital technologies in optimizing value chains and implementing robotics and innovative solutions. The discussion highlights the prospects for sustainable quality enhancement in industrial production through digital services.

Key words: digital economy, ICT, digital services, industrial production, e-commerce, business processes, Business Digitalization Index (BDI), robotics.

Аннотация: В статье рассматривается роль цифровых услуг в повышении качества промышленного производства в условиях цифровой экономики. Исследование охватывает методы цифровизации и интеграции производственных процессов на основе использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). В качестве методов использовались контент-анализ и сравнительный подход. Результаты демонстрируют эффективность цифровых технологий в оптимизации цепочек создания стоимости и внедрении робототехнических и инновационных решений. В разделе обсуждения подчеркиваются перспективы устойчивого повышения качества производства благодаря цифровым сервисам.

Ключевые слова: цифровая экономика, ИКТ, цифровые услуги, промышленное производство, электронная коммерция, бизнес-процессы, индекс цифровизации бизнеса (BDI), робототехника.

KIRISH

XIX asrda elektr energiyasining kashf etilishi qanday sanoat inqilobini yuzaga keltirgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ham jamiyat va iqtisodiyotning tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Biroq avvalgi sanoat inqiloblaridan farqli o'laroq, bu texnologik o'zgarishlar bevosita global miqyosdagi axborot oqimlariga, ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatining shakllanishiga bog'liq bo'lib, u jamiyat tuzilmasini, aholining turmush tarzini va iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'zgartirmoqda.

Axborotlashtirish jarayonlari iste'molchilarning ehtiyoj va talablarini murakkablashtirib, ularni yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini oshirmoqda. AKT vositalari esa real vaqt rejimida monitoring, boshqaruv va nazorat jarayonlarini yuqori darajada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati va xususiy investorlarning yondashuvi ham sezilarli darajada o'zgarmoqda – ular endilikda past



malakali mehnatga asoslangan texnologiyalarga emas, balki intellektual va raqamli yechimlarga asoslangan faoliyat sohalariga ustuvorlik bermoqdalar.

Bugungi sanoat ishlab chiqarish jarayonida robototexnika, raqamli tizimlar va sun'iy intellektni qo'llash orqali innovatsion, moslashuvchan va yuqori sifatli texnologik yechimlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat bilan integratsiyalashgan ishlab chiqarish mexanizmlari yaratish, AKT imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali sanoat mahsulotlarining sifatini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Veselovskiy M.Yu. va Izmaylova M.A.ning fikriga ko'ra, raqamlashtirish sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va rejalashtirishdagi nomoddiy jarayonlarni jismoniy ishlab chiqarish va operativ qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashtirish orqali global taqsimlangan raqamlashtirilgan aktivlar hamda tashkiliy resurslardan foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa sanoat korxonalarining mavjud elektron tijoratga asoslangan biznes modelini o'zgartiradi va yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi.

Izmaylova M.A. raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat ishlab chiqarishni transformatsiyalashtirishda korxona xodimlari eng muhim ishlab chiqarish resurslaridan biri sifatida maydonga chiqishini alohida ta'kidlaydi.

N.S. Morozova o'z tadqiqotlarida raqamli biznesda korxona xodimlari tegishli raqamli vakolatlarga ega bo'lishi zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, raqamli kompetensiyalarning sifati bevosita faoliyat yuritilayotgan sohadagi professional standartlarda belgilangan talablar darajasida bo'lishi kerak.

Dashkov I.K. raqamli iqtisodiyot nuqtai nazaridan asosiy aktivlar sifatida axborot va inson kapitalini ko'rsatadi.

Ross B., Stubbings C., Sheppard B. hamda Kellylar raqamli kompetensiyalar bo'yicha xodimlarning tayyorlik darajasi raqamli biznesni muvaffaqiyatli transformatsiya qilishda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, C.B. Frey va M.A. Osborne fikriga ko'ra, raqamli innovatsiyalarni joriy etish darajasi xodimlar tomonidan raqamli kompetensiyalarni egallash tezligidan ancha yuqori. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlarni uzluksiz tayyorlash va qayta o'qitish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoat ishlab chiqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda raqamli xizmatlarni rivojlantirish uchun robototexnika majmualari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida real vaqt rejimida o'zaro integratsiyalashgan, innovatsion va moslashuvchan ishlab chiqarish usullarini shakllantirish yondashuvi qo'llanilgan. Shuningdek, ilg'or tajribalar asosida qiyosiy tahlillar o'tkazish orqali AKT imkoniyatlarining samaradorligi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish sanoat ishlab chiqarishida qayta ishlash xarajatlarini kamaytirib, umumiy iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Ilgari ishlab chiqarish korxonalari mahsulot tannarxini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratmagan, bu esa ortiqcha xarajatlar va yuqori tannarx bilan bog'liq bo'lgan. Biroq, so'nggi yillarda avtomatlashtirish jarayoniga olib keluvchi raqamli transformatsiyaning jadal integratsiyasi keraksiz xarajatlarni qisqartirishda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, raqamli ishlab chiqarish texnologiyalari innovatsion rivojlanish sikllarini qisqartirib, mahsulodorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida AKTdan foydalanish orqali elektron tijoratni rivojlantirishda raqamlashtirishning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun biznes-jarayonlarni g'oya paydo bo'lishidan tortib to uni amaliyotga joriy etish va ekspluatatsiya qilishgacha bo'lgan butun qiymat zanjiri bo'ylab optimallashtirish zarur. Bunday transformatsiya faqat texnologik yangilanish emas, balki milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi lozim.


Shu bilan birga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini tarmoqlararo integratsiyalash hamda optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun raqamli rivojlanishning quyidagi to'rtta asosiy texnologik tayanchiga tayanish muhim:

- Katta ma'lumotlar (Big Data) – barcha turdagi kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatlarining keskin o'sishi, sun'iy intellekt asoslarini shakllantiradi;
- Ijtimoiylik (Sociality) – turli rollarni bajaradigan sub'yektlar o'rtasida ko'p sonli foydalanuvchilarni jalb qilish zarurati;
- Harakatchanlik (Mobility) – istalgan joydan ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyati;
- Bulut texnologiyalari (Cloud Computing) – ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishning samarali usuli.



Ushbu texnologiyalarning uyg'un kombinatsiyasi elektron biznes-jarayonlar qiymatini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Natijada, sanoat mahsulotlarini individual iste'molchilar ehtiyojlariga moslashtirish, xizmatlarni esa real vaqt rejimida, kerakli joy va vaqtda yetkazib berish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, sanoat korxonalarini integratsiyalash jarayonida asosiy strategik resurs sifatida faqat ma'lumot emas, balki bilim va raqamli vakolatlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki texnologiyalar rivojlanishi natijasida kelajakda mavjud ma'lumotlarning deyarli barchasi raqamli shaklda tasniflanadi va algoritmlar orqali qayta ishlanishi mumkin bo'ladi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida bilimga asoslangan boshqaruv modeliga o'tishni taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. Elektron raqamlashtirish xizmatlari intellektual boshqaruv funksiyalari.

Hozirgi kunda mobil telefonlar, sun'iy yo'ldosh aloqasi va kabel televideniyesi intellektual tarmoqli tijorat shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (SI) tadqiqotlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u sanoatning jadal o'sishida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etilmoqda. Bu texnologik o'zgarishlar zamonaviy tilda "Sanoat 4.0" deb nomlanmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellektga asoslangan texnologik yechimlar nafaqat ko'ngilochar sohalarda, balki ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida ham keng joriy etilmoqda. Facebook, Google, Amazon, Apple, Microsoft, Baidu kabi yetakchi texnologik kompaniyalar sun'iy intellekt sohasiga katta sarmoyalar yo'naltirib, o'z faoliyatlarida turli amaliy ishlanmalardan foydalanmoqda.

O'zbekistonda sanoat interneti infratuzilmasining rivojlanishi bevosita 5G tarmoqlari bilan bog'liq bo'lib, bu esa bulutli saqlash tizimlari va "talab bo'yicha hisoblash" (on-demand computing) samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Sanoat ishlab chiqarish korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi iqtisodiy faoliyat yo'nalishlariga ko'ra farqlanadi. Bu borada keng polosali Internet, bulutli xizmatlar, RFID (Radio Frequency Identification) texnologiyalari va ERP tizimlari eng yuqori intensivlikka ega raqamli texnologiyalar sifatida ajralib turadi.

RFID texnologiyasi obyektlar harakatini aqlli kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Sanoat ishlab chiqarishda esa bu texnologiya mahsulotlarni markalash, materiallar harakatini nazorat qilish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va do'konlararo jarayonlarni avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari raqamlashtirish va texnologik yangilanish orqali innovatsion salohiyatni oshirishni nazarda tutadi. Elektron tijoratning raqamli transformatsiyaga moslashuv darajasini baholashda BDI (Business Digitalization Index) – biznesni raqamlashtirish indeksi qo'llaniladi.

Ushbu indeks quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- biznes faoliyatida axborotni uzatish va saqlash vositalaridan (bulutli texnologiyalar, korporativ pochta, messengerlar, avtomatlashtirish tizimlari va boshqalar) foydalanish;
- sun'iy intellekt, 3D bosib chiqarish, elektron hujjat aylanishi kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- internet vositalari orqali marketing va korxona rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- axborot xavfsizligi tizimlari va antivirus dasturlaridan foydalanish;
- inson kapitalining raqamli kompetensiyalari va kadrlar tayyorgarligida rahbariyatning ishtiroki.



Xarajatlarni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarida ERP tizimlari orqali ichki ma'lumotlar va qiymat zanjiridagi sheriklardan (masalan, inventarizatsiya darajasi yoki mijozlar talabi haqidagi ma'lumotlar) olingan axborotlarni sinxronlashtirish zarur. Shu bilan birga, asosiy aktivlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jadvallari raqamli vositalar yordamida optimallashtirish orqali ularning ishlash muddati uzaytiriladi.

Elektron tijoratni rivojlantirish va uni sanoat ishlab chiqarishiga integratsiyalash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- raqamlashtirish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish va texnik-me'yoriy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- davlat tomonidan raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish;
- zarur dasturiy ta'minot va metodologik infratuzilmani shakllantirish;
- sanoat korxonalari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish.

Raqamli platformalar, dasturiy ta'minot, ustuvor elektron komponentlar va radioelektron qurilmalar ishlab chiqarish texnologiyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash strategik yo'nalishlardan biridir. Bular yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish mahsulot sifatini oshirish, uni tezda bozorga olib chiqish va daromadni ko'paytirishga xizmat qiladi.

"Internet buyumlari" (Internet of Things – IoT) texnologiyalarining sanoatga joriy etilishi esa ishlab chiqarishdagi xatoliklarni dastlabki bosqichda aniqlash imkonini beradi, bu esa shikoyatlar sonining kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, robototexnika va narsalar interneti kabi texnologiyalarni integratsiyalash orqali doimiy, uzluksiz va ishonchli ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish mumkin. Bunday texnologiyalar inson ishtirokiga minimal ehtiyoj bilan yuqori aniqlikda ishlash imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshadi va sanoat mahsulotlari bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, To'rtinchi sanoat inqilobi qiymat zanjiri bo'ylab raqamli texnologiyalarning keng doirasini o'z ichiga oladi hamda axborot va avtomatlashtirish jarayonlarining markaziy asosini tashkil etadi. Biroq bu jarayonni to'liq amalga oshirish sanoat sohasida raqamli transformatsiyani jadallashtirishni va uni tizimli tarzda joriy etishni talab qiladi.

Sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron raqamli xizmatlarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Murakkab mahsulotlarni yig'ish jarayonida operatorlar bosqichma-bosqich ko'rsatmalarni proyeksiya displeylari orqali ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa montaj operatsiyalarini bajarishda qo'llarning erkinligini ta'minlaydi va samaradorlikni oshiradi.
- Masofaviy texnik xizmat va ta'mirlash amaliyotida uskunaning ishlashi va yuzaga kelgan nosozliklar real vaqt rejimida video translyatsiya orqali mutaxassislarga uzatiladi. Ular esa bevosita onlayn tarzda texnik maslahat va ko'rsatmalarni taqdim etishadi.
- Mahsulot sifatini nazorat qilishda raqamli texnologiyalar muhandislar va operatorlarga mahsulotni loyiha spetsifikatsiyalariga muvofiqligini tekshirishda, shuningdek to'g'ri qismlar va to'g'ri yig'ish jarayonlarini aniqlashda samarali yordam beradi.
- Ish joyida xodimlarni o'qitishda interaktiv elektron texnik qo'llanmalardan foydalanish yig'ish sifatini oshiradi, xodimlar xavfsizligini ta'minlaydi hamda yangi ishchilarni o'qitish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.
- Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani jadallashtiradi, ishlab chiqarish jarayonlarining sifatini oshiradi va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Veselovskiy M.Yu., Izmaylova M.A. Raqamlashtirishning mahsulot ishlab chiqarish, rejalashtirish va sanoat korxonalarining raqamli biznes modeliga ta'siri haqida. – Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarishni transformatsiyalash mavzusidagi ilmiy maqolalar to'plami.
2. Morozova N.S. Raqamli iqtisodiyotda xodimlarning raqamli kompetensiyalari va ularning professional standartlarga muvofiqligi haqida. – Raqamli biznes va mehnat bozori, ilmiy maqola.
3. Dashkov I.K. Raqamli iqtisodiyotning asosiy aktivlari sifatida axborot va inson kapitali. – Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv strategiyalari, ilmiy maqolalar to'plami.
4. Ross B., Stubbings C., Sheppard B., Kelly. Xodimlarning raqamli tayyorgarligi va biznes transformatsiyadagi roli. – Digital Competence in Business Transformation. London: Wiley & Sons, 2020.
5. Frey C.B., Osborne M.A. Raqamli innovatsiyalar va mehnat bozori: avtomatlashtirish xavflari va kadrlar tayyorlash zarurati. – The Future of Employment: How Susceptible Are Jobs to Computerisation? – Oxford Martin School, 2017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
